

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA JORIY QILINAYOTGAN TEXNIKALARING XOMASHYO SIFATIGA TA’SIRI

Azizbek Raximjonov

Farg‘ona Politexnika instituti assistenti

Saodatxon Xamraliyeva

Farg‘ona Politexnika instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada paxta-to‘qimachilik klasterlarda yer, suv va boshqa resurslardan samarali hamda oqilona foydalanish hisobiga hosildorlikni oshirish imkoniyatlari yaratilayotganligi, hamda joriy qilinayotgan texnika va texnologiyalar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: paxta tolasi, to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalari, ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari.

Kirish

Dunyo bozorida mahsulotlarni sotish katta imkoniyatlar berish bilan birga, ishlab chiqaruvchi zimmasiga mas’ul vazifa, ya’ni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta’minalashni ham yuklaydi. Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi va uning mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi, dunyo standartlari talablariga javob berishi ularning jahonda bozorida xaridorgir bo‘lishining asosiy omilidir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarda shu jihat alohida ahamiyat kasb etgan [1-3].

Respublikamizda paxtachilikning eng ko‘p iqtisodiy samara berishini ta’minalash uchun paxta tolasi va paxtani qayta ishlashdan olinadigan boshqa shu kabi mahsulotlar sifatini belgilash yo‘nalishida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki o‘rtasida paxta loyihasi bo‘yicha konkret tadbirlar ishlab chiqildi. Shuning uchun

paxta tozalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan paxta mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, dunyo andozalarini talablariga javob berishi, ularning jahon bozorida xaridorgir bo‘lishining asosiy omili hisoblanadi.

Paxtamiz rangi, tolasining uzunligi, pishiqligi va mikroneyr ko‘rsatkichlari bilan xalqaro standartlarga to‘la javob beradi. Bu uning jahon tola bozorida xaridorligini ta’minlaydigan eng muhim jihatlaridandir. Ammo, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ushbu tolani o‘zimizda qayta ishlab, tayyor mahsulot shaklida jahon bozoriga olib chiqsak-chi? Daromad bir necha barobarga oshishi tabiiy. Qolaversa, paxta o‘simlididan olinadigan yana yuzlab mahsulotlar ham borki, bularning barchasi iqtisodiy samarani bir necha barobarga oshiradi. Eng muhimi, ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy isloxoqlar kontseptsiyasiga muvofiq “Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi

Shunga asosan paxta xomashyosini qabul qilish, saqlash, tashish va qayta ishlash, ekiladigan urug‘lik chigitni tayyorlash bo‘yicha ishlarning butun kompleksini tashkil etish va amalga oshirish, xalqaro standartlar talablariga javob beradigan yuqori sifatli paxta mahsulotini tayyorlash bo‘yicha zamonaviy yuqori unumli uskunalar va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish, sohaga investitsiyalar jalb etish, xomashyoni qayta ishlashga beruvchi sifatida paxta tozalash korxonalariga ular tomonidan paxta-to‘qimachilik klasterlari tizimida faoliyatni amalga oshirish, ilmiy-texnik va tajriba-eksperimental tadqiqotlarni rivojlantirish, sohaga innovatsion g‘oya, ishlanma va texnologiyalarni joriy etilmoqda [4-7].

Paxtani yetishtirish, hosilini terib olish, tashish, g‘aramlash va uni saqlash, undan tashqari chigitli paxtani qayta ishlash jarayonlaridan ma’lumki, mexanizatsiya vositalarining yetarli darajada takomillashmaganligi, ayniqsa, noqulay ob-havo sharoitida paxta tayyorlov punklarida hamda paxta tozalash korxonalarida ayrim hollarda noto‘g‘ri texnologik rejim hamda uskunalarni tanlanishi oqibatida tolaning tabiiy sifat xususiyatlariga sezilarli darajada shikast yetkazadi. Paxtani ochiq va yopiq omborga uzatish va taqsimlash jarayonida uni ombor yuzasi bo‘yicha notekis taqsimlanishi tufayli paxta qatlamlarida zichlikning notekis miqdorda bo‘lishiga ham olib keladi [8-10].



Ushbu xolatlar paxtani yetishtirish, hosilini terib olish, tashish, go‘aramlash va uni saqlash tolani zararlanishi, hamda chigitning mexanik shikastlanishiga olib keladi. Natijadatolaning rangi o‘zgarishi, gajjaklar paydo bo‘lishi va singan chigit bo‘laklari tolaga o‘tib uning tarkibida nuqson va iflos aralashmalarni ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu holat ayniqsa namligi yuqori bo‘lgan paxtalarda ko‘proq ro‘y beradi.

Paxta terimiga Toshkent traktor zavodida mahalliy va horijiy “CNH” kabi kompaniyalarida ishlab chiqarilgan yangi paxta terish mashinalari foydalanilmoqda [11,12].

Bundan tashqari, klasterlar tomonidan organik paxta yetishtirilishiga erishildi. Bunda “Textile Technologies Group” korxonasi va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari hamkorligida hech qanday kimyoviy yoki boshqa usullardan foydalanmagan holda organik paxta yetishtirildi.

Sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar investorlari va mahalliy tashabbuskorlar ishtirokida zamonaviy energiya tejamkor uskuna va dastgohlar o‘rnatish hisobiga respublikaning barcha hududlarida paxta-to‘qimachilik loyihalari amalga oshirilmoqda hamda sanoat korxonasi bo‘lmagan hududlarda yangi zamonaviy korxonalar tashkil qilinmoqda.

Klaster tizimidagi paxta tozalash korxonalariga paxtani dastlabki ishslash texnika va texnologiyalarini mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan tomonidan ta’milanmoqda. Ushbu ishlab chiqaruvchi korxonalar soha olimlari, ilmiy tadqiqot markazlari, toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti va namangan muhandislik-texnologiya institutlari olimlari bilan xamkorlikda ishlab, yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni klaster tizimida paxta tozalash korxonalariga yetkazib berishmoqda.

Horijiy mamlakatlar orasida chigitli paxtani dastlabki ishslash texnologiyasi rivojlangan va zamonaviy ilg‘or texnikaga ega bo‘lgan Amerika Qo‘shma Shtatlari hisoblanadi. “John Deere” rusumli paxta terish kombayni 1-rasmida keltirilgan.

Innovation House



1-rasm. John Deere rusumli paxta terish kombayni.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi paxtani qayta ishlash korxonalarida o'rta va uzun tolali chigitli paxtadan tola ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ilgo'or texnologik jarayonlarni o'rganishda "Lyummus" korporatsiyasi, «Kontinental Igl» uskunasozlik firmasi taklif etilgan uskunalar majmuasi misol bo'la oladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida paxta sanoati uchun texnologik uskunalarini, qurilmalarni, agregatlarni va moslamalarni asosan "Kontinental Igl", "Lyummus" va "Samuel Djekson" mashinasozlik firmalari tayyorlaydi. Bu firmalarda ishlab chiqariladigan texnologik uskunalarning konstruktsion tuzilishlarida o'zgachaliklar bo'lgani bilan, ularning asosiy texnik ko'rsatkichlari va vazifalarida farqi kam.

Horijiy mamlakatlar orasida chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi rivojlangan va zamonaviy ilg'or texnikaga ega b'ilgan AQSh hisoblanadi.

Research Science and Innovation House



2-rasm. Paxta modulini tayyorlash, tashish va ishlab chiqarishga uzatish jarayonlari.

Hozirgi kunda paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarish korxonalarida joriy qilinayotgan texnikalar tahlili asosida qo‘sishmcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarini uzlusizligini ta’minlash masalalarini o‘rganib chiqish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rakhimjonov, A. (2022). The dependence of yarn density on spinning systems and quality indicators.
2. A.Raximjonov. (2023). Paxtani tayyorlash va saqlashda joriy qilinayotgan texnikalarni xom ashyo sifatiga ta’sirini tadqiq qilish. Monografiya. Toshkent.
3. Rakhimjonov, A., & Bakhtiyorova, U. (2023). Promoting The Development Of Improved Cleaning Technology. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 17, 44-47.



4. Ulugboboyeva, M. M., & Tursunova, X. S. (2021). Ways to solve problems in the production of knit wear. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 29-33.
5. O'g'li, T. U. D. U., & Qizi, B. M. N. (2022). Verification of the values obtained based on the theoretical analysis of the working details of the crusher in the program “Solidworks”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(10), 222-229.
6. Salimov, A., Khusanova, S., Salimov, O., Toshtemirov, Q., Yakubov, N., & Rakhimjanov, A. (2022). Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton. *Journal of Optoelectronics Laser*, 41(7), 612-618.
7. Tursunova, X. S., & Rahmatovna, M. S. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. In 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
8. Husanqizi, S. M., Ubaydulloevna, Y. D., & Valiyevich, H. J. (2021). Analysis of the development of older women's clothing of different subcultures (On the example of muslim women's clothing). *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 377-381.
9. Ulugboboyeva, M. M., & Tursunova, X. S. (2021). Ways to solve problems in the production of knit wear. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 29-33.
10. Sharipjanovich, S. O. Umarali og, TD, & Qizi, BMN (2021). Current State And Analysis Of Equipment For Cleaning And Selection Of Seeds. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 29(2), 337-342.
11. Maripdjanovna, U. B. M., & Valiyevich, X. J. (2021). Research and analysis of physical and mechanical properties of the national fabric-adras. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 77-88.
12. Ergashov, Y., Babayeva, M., & Akhmedov, A. (2023). New regenerator design for regeneration of raw cotton voles from non-ginned seeds. *Academia Science Repository*, 4(04), 32-35.